Annotatsiya. Ushbu maqolada auditorlik xulosasi va axborot taqdimoti sifatini integratsiyalashning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida auditorlik hisobotlari mazmunining aniqligi, strukturaviy uyg‘unligi va foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasini baholash imkonini beruvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, auditorlik xulosalari sifatini oshirishda buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini sintetik va analitik darajada integratsiyalash, iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalanish hamda raqamli audit platformalarini joriy etishning ahamiyati asoslab berilgan. Amaliy tahlil natijalariga ko‘ra, integratsiyalashgan yondashuvlar auditorlik xulosalarining ishonchliligi, aniqligi va foydalanuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada, shuningdek, xalqaro audit standartlariga muvofiq ravishda axborotni vizualizatsiya qilish, raqamli taqdimot tizimlarini takomillashtirish hamda axborot sifati mezonlarini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: auditorlik xulosasi, axborot taqdimoti sifati, integratsiya, auditorlik hisobotlari, buxgalteriya hisobi, sintetik va analitik axborot, iqtisodiy tahlil vositalari, raqamli audit platformalari, xalqaro audit standartlari, axborotni vizualizatsiya qilish.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of integrating audit report quality and information presentation. During the study, a system of indicators was developed to assess the accuracy, structural coherence, and user-friendliness of audit report content. The study also substantiates the importance of integrating accounting information at both synthetic and analytical levels, applying economic analysis tools, and implementing digital audit platforms to improve the quality of audit reports. According to the results of the practical analysis, integrated approaches significantly enhance the reliability, accuracy, and usability of audit reports. The article also presents recommendations for information visualization, the improvement of digital presentation systems, and the development of information quality assessment criteria in accordance with international auditing standards.

Key words: audit report, information presentation quality, integration, audit reports, accounting, synthetic and analytical information, economic analysis tools, digital audit platforms, international auditing standards, information visualization.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты интеграции качества аудиторского заключения и представления информации. В ходе исследования разработана система показателей, позволяющая оценивать точность, структурную согласованность и удобство использования содержания аудиторских заключений. Также обоснована значимость интеграции бухгалтерской информации на синтетическом и аналитическом уровнях, применения инструментов экономического анализа и внедрения цифровых аудиторских платформ для повышения качества аудиторских заключений. По результатам практического анализа установлено, что комплексные подходы способствуют существенному повышению надёжности, точности и удобства использования аудиторских заключений. В статье также предложены рекомендации по визуализации информации, совершенствованию систем цифрового представления и разработке критериев оценки качества информации в соответствии с международными стандартами аудита.

Ключевые слова: аудиторское заключение, качество представления информации, интеграция, аудиторские заключения, бухгалтерский учёт, синтетическая и аналитическая информация, инструменты экономического анализа, цифровые аудиторские платформы, международные стандарты аудита, визуализация информации.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligi to'g'risidagi axborot manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday axborotning ishonchliligini ta'minlashda auditorlik faoliyati va uning asosiy natijasi — auditorlik xulosasi alohida o'rin tutadi. Auditorlik xulosasi nafaqat moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjat, balki investorlar, kreditorlar, davlat organlari hamda boshqa foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu bois auditorlik xulosasining mazmuni, aniqligi va axborot taqdimoti sifati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli hisobot tizimlarining keng joriy etilishi hamda xalqaro audit standartlarining takomillashuvi auditorlik xulosasining mazmuni va shakliga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Ayniqsa, axborot taqdimoti sifatini oshirish, ya'ni auditorlik natijalarini foydalanuvchilarga aniq, tushunarli va tahliliy shaklda yetkazish bugungi kunda auditorlik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Auditorlik xulosasi bilan axborot taqdimoti sifatini integratsiyalash audit natijalarining ishonchliligini yanada mustahkamlash, auditorlik fikrining mazmun-mohiyatini to'liqroq yoritish, shuningdek, foydalanuvchilarning moliyaviy axborotga bo'lgan ishonchini oshirish imkonini beradi. Mazkur integratsiyalashuv auditorlik hisobotlari strukturasini takomillashtirish, vizual va raqamli tahlil vositalarini keng qo'llash hamda auditorlik xulosalarini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur mavzuning dolzarbligi auditorlik xulosasi mazmuni bilan axborot taqdimoti sifati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni integratsiyalash mexanizmlarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan International Standard on Auditing (ISA) 700: Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements (IFAC, 2020) xalqaro standarti auditorlik xulosasining tuzilishi, mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Unda auditorlik hisobotining asosiy qismlari, muhim masalalar hamda auditor fikrini ifodalash tamoyillari batafsil yoritilgan. Mazkur maqolada axborot taqdimoti sifatini oshirish va auditorlik xulosalarini xalqaro me'yorlarga muvofiqlashtirish masalalarini tahlil qilishda aynan ISA 700 standarti asosiy metodologik manba sifatida qo'llanildi.

Audit nazariyasi va amaliyoti nomli o'quv qo'llanmada auditorlik faoliyatining nazariy asoslari, auditorlik fikrini shakllantirish jarayoni hamda auditorlik xulosasini tuzishning amaliy jihatlari yoritilgan. Mualliflar auditorlik natijalarining ishonchliligini ta'minlashda axborot sifati, auditorlik dalillarining asoslanganligi va tahliliy yondashuvning ahamiyatini keng tahlil qilgan. Ushbu manba maqolada auditorlik xulosasi va axborot taqdimoti sifatini integratsiyalashning ilmiy asoslarini ochib berishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobi va auditda axborot texnologiyalaridan foydalanish asarida raqamli audit tizimlari, avtomatlashtirilgan hisobotlar hamda axborot texnologiyalarining audit sifati va samaradorligiga ta'siri keng yoritilgan. Muallif buxgalteriya ma'lumotlarini sintetik va analitik darajada qayta ishlash auditorlik qarorlarini yanada aniq va asosli shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Mazkur asar maqoladagi integratsiyalashgan axborot platformalari, raqamli audit vositalari va ularning samaradorligi haqidagi ilmiy qarashlar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

The Audit Process: Principles, Practice and Cases xalqaro darajadagi darslik bo'lib, unda auditorlik jarayonining barcha bosqichlari, xususan, auditorlik dalillarini to'plash, ularni tahlil qilish va foydalanuvchilarga xulosa shaklida taqdim etish jarayonlari batafsil ko'rib chiqilgan. Mualliflar auditorlik axborotining shaffofligi va foydalanuvchilar uchun qulayligini oshirish bo'yicha ilg'or yondashuvlarni keltiradi. Maqolada axborotni vizualizatsiya qilish, tahliliy taqdimot va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishlarini asoslashda ushbu manba muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Audit nazorati inspeksiyasi tomonidan tayyorlangan "Audit faoliyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risidagi hisobot" (2023-yil)da O'zbekistonda auditorlik faoliyatining amaldagi holati, auditorlik xulosalari sifati, auditorlik tashkilotlari faoliyatidagi mavjud masalalar va ularni baholash indikatorlari yoritilgan. Hisobotda keltirilgan statistik va tahliliy ma'lumotlar maqoladagi amaliy natijalar, jadval va ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda asosiy empirik manba sifatida foydalanildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda auditorlik xulosasi va axborot taqdimoti sifatini o'zaro integratsiyalash orqali audit natijalarining ishonchliligi, aniqligi hamda samaradorligini oshirish yo'llari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida auditorlik xulosalarining mazmuni va axborot taqdimoti sifati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslash, tahlil va sintez, statistik baholash hamda iqtisodiy tahlil usullaridan

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

foydalanildi. Tadqiqot davomida xalqaro audit standartlari, ilmiy adabiyotlar, amaliy auditorlik hisobotlari va statistik ma'lumotlar asosida xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar, jumladan, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Audit nazorati inspeksiyasi tomonidan 96 ta audit tashkilotining 180 dan ortiq auditorlik xulosalari asosida amalga oshirilgan monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, auditning muhim masalalari bo'yicha bandlar ayrim hollarda auditorlik xulosasining asosiy natijalari bilan yetarli darajada uyg'unlashtirilmagan, qo'llanilgan yondashuvlar va auditorlik dalillari esa to'liq aks ettirilmagan. Bu holat auditorlik xulosalarining foydalanuvchilar uchun tushunarliligi, tahliliy ahamiyati va axborot qiymatini yanada oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, axborot taqdimoti sifati hamda auditning muhim masalalarini auditorlik xulosasi bilan integratsiyalash darajasini baholovchi aniq indikatorlar tizimini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Baholash indikatorlari tizimi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan asosiy komponentlarni qamrab oladi (1-jadval).

1-jadval. Baholash indikatorlari tizimining asosiy komponentlari[1]

| Indikator nomi | Tavsifi | Baholash mezonlari (1-5 ball) | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1. Struktura aniqligi | Axborot taqdimoti bloklarining izchilligi, sarlavha va subtizimlar mavjudligi | 1 - izchillik yo'q; 5 - mukammal strukturaviy tashkil | Vizual va mantiqiy yaxlitlik |
| 2. Auditning muhim masalalari va xulosa uyg'unligi | Auditning muhim masalalari mazmunining umumiy auditor fikri bilan bog'lanish darajasi | 1 - aloqasiz; 5 - to'liq integratsiyalashgan | Auditning muhim masalalaridagi risklar auditor xulosasida aks ettirilganmi? |
| 3. Axborot konteks-tualligi | Taqdim etilgan axborotning faoliyatga xos va dolzarbligi | 1 - umumiy andozaviy; 5 - maxsus moslashtirilgan | Auditning muhim masalalari foydalanuvchi uchun qanchalik foydali? |
| 4. Shaklning qulayligi | Jadval, grafik, punktlar ko'rinishida taqdim etish darajasi | 1 - matn ko'rinishida; 5 - multimodal (vizual, matnli) | Vizualizatsiya mavjudmi? |
| 5. Audit yondashuvi ko'rsatilganligi | Auditning muhim masalalari bo'yicha qo'llangan audit metodlari haqida ma'lumot | 1 - yo'q; 5 - to'liq ochiqlangan | Qanday usullar bilan audit o'tkazildi? |
| 6. Auditor dalillari va natijalari | Faktlar va dalillarning taqdim etilishi | 1 - yo'q; 5 - to'liq, dalillangan | Auditorlik mulohazasi qanday asoslangan? |

Ushbu indikatorlar asosida har bir auditorlik xulosasini 30 ballik tizim bo'yicha baholash imkoniyati mavjud. Amaliy qo'llash natijalari shuni ko'rsatadiki, "Namangan Agrokimyohimoya" AJ auditorlik hisobotining tahlilida auditorlik xulosasi va auditning muhim masalalari o'rtasidagi integratsiya darajasi o'rtacha 18 ball bilan baholangan. Bu esa auditorlik xulosasining foydalanuvchilar uchun axborot qiymati va tahliliy qulayligi o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, "Chust tuman qurilish bo'limi" auditorlik hujjatida barcha indikatorlar bo'yicha yuqori natijalar qayd etilib, umumiy baho 26 ballni tashkil etgan. Mazkur holatda auditning muhim masalalari, qo'llanilgan yondashuvlar, auditorlik dalillari hamda yakuniy xulosa o'rtasida yuqori darajadagi uyg'unlik ta'minlangan.

Mazkur indikatorlar auditorlik tashkilotlari va nazorat organlari tomonidan sifat monitoringini amalga oshirish, auditorlarning malakasini baholash hamda ularga metodik yordam ko'rsatishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, ushbu indikatorlar asosida ichki audit tizimiga ega tashkilotlar o'z faoliyati samaradorligini baholashi va uni takomillashtirish bo'yicha zarur choralarni ishlab chiqishi mumkin. Shu tariqa, auditning muhim masalalari va axborot taqdimoti sifati asosida shakllantirilgan indikatorlar tizimi auditorlik xulosalarining amaliy ahamiyatini oshirish va foydalanuvchilarga yanada foydali axborot taqdim etishga xizmat qiladi.

Auditorlik faoliyatida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining sintetik va analitik darajadagi axborotlaridan kompleks foydalanish zamonaviy audit metodologiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash, xo'jalik jarayonlarining haqqoniy aks ettirilganlik darajasini aniqlash hamda auditning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ushbu ma'lumotlarning ahamiyati katta. Sintetik hisoblar, ya'ni umumlashtirilgan balans va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlar auditor uchun boshlang'ich

1 Muallif ishlanmasi

axborot manbai hisoblanadi. Biroq mazkur darajadagi ma'lumotlar ayrim hollarda iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini to'liq yoritib bera olmaydi. Shu sababli hisobvaraq tafsilotlari, tovar-moddiy zaxiralar harakati, debitor va kreditor qarzlar dinamikasi kabi analitik ma'lumotlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, 2022–2023 yillarda auditorlar tomonidan faqat sintetik axborotlardan foydalanilgan holatlarda aniqlik darajasi 68 foizni tashkil etgan bo'lsa, sintetik va analitik hisoblar integratsiyalashgan holda qo'llanilgan audit tekshiruvlarida ushbu ko'rsatkich 89 foizga yetgan. Jumladan, "Mingbuloq dehqon bozori" AJda o'tkazilgan audit davomida moliyaviy hisobotlar umumiy holati qoniqarli deb baholangan bo'lsa-da, analitik hisobotlardagi tafsilotlar orqali ayrim xarajatlarning sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Mazkur holat auditor uchun nafaqat umumlashtirilgan ma'lumotlar, balki ularning chuqur tahlili ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tahliliy vositalar yordamida sintetik va analitik hisobotlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash audit risklarini kamaytirish hamda auditorning professional mulohazasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda 2024-yilda tahlil qilingan 127 ta auditorlik hisobotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, auditorlar tomonidan 73 foiz holatda analitik tafsilotlardan yetarli darajada foydalanilmagan, bu esa auditorlik xulosalarining tahliliy chuqurligini cheklagan. Shu bois bugungi kundagi muhim vazifalardan biri buxgalteriya axborotlarining barcha darajalarini integratsiyalash va ular asosida chuqur tahliliy xulosalar shakllantirish orqali auditorlik faoliyati sifatini yanada oshirishdan iboratdir. Bu esa nafaqat audit tekshiruvlarining ishonchliligini, balki audit natijalariga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Auditorlik faoliyatida iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalanish, xususan, auditor qarorlarini asoslash jarayonida ushbu vositalarning samaradorligini oshirish professional audit natijalariga erishishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Auditorlar moliyaviy hisobotlarni tekshirish jarayonida ularni faqat raqamlar yig'indisi sifatida emas, balki xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining iqtisodiy dinamikasi va rivojlanish tendensiyalarini aks ettiruvchi axborot manbai sifatida baholashi lozim. Ayniqsa, rentabellik, likvidlik, moliyaviy barqarorlik va aylanish koeffitsientlari kabi nisbiy ko'rsatkichlar auditorlarning asoslangan qaror qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillardagi amaliy tahlillar iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalangan auditorlar tomonidan shakllantirilgan xulosalarning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, 2023-yilda "Chust tuman qurilish bo'limi" MCHJda o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari davomida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining normativlardan chetlanishlari tahliliy vositalar yordamida aniqlangan va bu hisobotdagi ayrim kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qilgan. Jumladan, joriy likvidlik koeffitsientining 1,3 o'rniga 0,9 darajasida shakllangani hamda umumiy moliyaviy mustahkamlik koeffitsientining normativ 0,5 bo'lishiga qaramasdan 0,32 darajada qayd etilgani auditorlik xulosasini qo'shimcha tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirgan.

Shuningdek, 2022–2024 yillarda respublika bo'yicha 150 dan ortiq auditorlik hisobotlari tahlili natijalariga ko'ra, iqtisodiy tahlil vositalaridan foydalanilmagan auditorlik xulosalarining 37 foizida ayrim faktik xatoliklar yoki yuzaki yondashuvlar kuzatilgan. Bunda auditorlarning rentabellik tahliliga yetarli e'tibor qaratmaganligi yoki likvidlik indikatorlaridan foydalanmaganligi asosiy omillardan biri bo'lgan. Aksincha, iqtisodiy tahlil usullari bilan boyitilgan auditorlik qarorlari aniqlik darajasi bo'yicha qariyb 87 foiz ijobiy natija ko'rsatgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hisob va tahlil tizimlarini yagona integratsiyalashgan axborot platformasi orqali uyg'unlashtirish zamonaviy audit amaliyotining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, buxgalteriya axboroti hamda iqtisodiy tahlil vositalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv, bir tomondan, auditorlarning professional fikr va mulohazalarini chuqurlashtirsa, ikkinchi tomondan esa auditorlik xulosalarining aniqligi, asoslanganligi va amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Amaliyotda ko'plab hollarda buxgalteriya hisobining dastlabki ma'lumotlari va tahliliy natijalar alohida tizimlarda yuritiladi. Bu esa auditor tomonidan axborotlar o'rtasidagi bog'liqlikni murakkablashtirishi, ayrim muhim jihatlarning yetarli darajada tahlil qilinmasligiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan integratsiyalashgan axborot platformalarini joriy etish orqali buxgalteriya dasturlaridan iqtisodiy tahlil indikatorlari, grafiklar, prognozlar hamda qaror qabul qilish uchun zarur signal ko'rsatkichlarini avtomatik shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Masalan, 1C-Audit Plus yoki SAP ERP tizimlarining ayrim modullari orqali korxonaning moliyaviy natijalari real vaqt rejimida monitoring qilinadi va auditorlar rentabellik, likvidlik hamda operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha avtomatik ogohlantirishlar olish imkoniyatiga ega bo'ladi. 2023-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonning yirik 40 ta xususiy kompaniyasida ushbu integratsiyalashgan tizimlarning joriy etilishi natijasida auditda aniqlik darajasi 23 foizga, qaror qabul qilish tezligi esa 18 foizga oshgani kuzatilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022–2024 yillar davomida audit jarayonida hisob va tahlil tizimlarini avtomatlashtirilgan platformalarda birlashtirgan korxonalarda audit siklining davomiyligi o'rtacha 14 foizga qisqargan, auditorlik xulosalarida aniqlik va asoslanganlik darajasi esa 90 foizdan yuqori bo'lgan. Bu esa, o'z

navbatida, audit ishonchliligi va manfaatdor tomonlar — investorlar, boshqaruvchilar hamda davlat organlari oldidagi axborot mas'uliyatining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Shu asosda hisob va tahlil tizimlarini yagona axborot muhitida birlashtirish nafaqat texnologik yangilik, balki auditorlik mulohazasining zamonaviy metodologiyasi sifatida qaralishi lozim. Integratsiyalashgan platformalarning joriy etilishi auditorlar bilan bir qatorda moliyaviy menejerlar, ichki auditorlar va risk-menejerlar uchun ham qaror qabul qilish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bois bunday tizimlarni ishlab chiqish, joriy etish hamda malakali auditorlarni ular bilan ishlashga tayyorlash yaqin yillarda milliy audit amaliyotini raqamli transformatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Auditorlik xulosasi va axborot taqdimoti sifati o'rtasidagi integratsiya moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va foydalanuvchilar uchun amaliy ahamiyatini sezilarli darajada oshiradi. Hozirgi sharoitda auditorlik faoliyatida faqat an'anaviy matnli xulosalar bilan cheklanib qolish axborot ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun yetarli emas. Shu sababli auditorlik hisobotlarini vizual, raqamli va tahliliy shakllarda taqdim etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Auditorlik xulosasining mazmunan boyitilishi, ya'ni audit jarayonida aniqlangan muhim xavf omillari, baholash natijalari va auditor fikrining asoslari haqida batafsil axborot berilishi foydalanuvchilarning tushunuvchanligi va axborotdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, axborot taqdimoti sifatining yaxshilanishi auditorlik faoliyatining shaffofligi, mas'uliyat darajasi va professionallik mezonlarini yanada mustahkamlaydi.

Auditorlik xulosasi va axborot taqdimoti integratsiyasining quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratish mumkin:

1. Axborotni vizualizatsiya qilish — grafiklar, diagrammalar va infografikalar orqali audit natijalarini foydalanuvchilar uchun yanada qulay va tushunarli shaklda ifodalash.

2. Raqamli audit platformalarini joriy etish — elektron hisobot tizimlari orqali auditorlik xulosalari va tavsiyalarini onlayn shaklda taqdim etish hamda tezkorlik va interaktivlikni ta'minlash.

3. Xalqaro audit standartlariga muvofiqlikni ta'minlash — auditorlik xulosalari tuzilmasini ISA 700–705 standartlari talablariga moslashtirish orqali auditor fikrining aniqligi va ishonchliligini oshirish.

4. Axborot sifatini baholash mezonlarini joriy etish — auditorlik axborotining dolzarbligi, aniqligi va izchilligini baholash orqali axborot taqdimoti darajasini nazorat qilish.

Integratsiya jarayonining amaliy natijalari sifatida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- foydalanuvchilar tomonidan auditorlik xulosalarini to'g'ri talqin qilish darajasi oshdi;
- audit tashkilotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lami kengaydi;
- auditorlik hisobotlarining ishonchliligi va ochiqligi bo'yicha baholash ko'rsatkichlari yaxshilandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Auditing (ISA) 700: Forming an Opinion and Reporting on Financial Statements. – IFAC, 2020.
2. Audit nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
3. Buxgalteriya hisobi va auditda axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023.
4. The Audit Process: Principles, Practice and Cases. – Cengage Learning, 2021.
5. Audit nazorati inspeksiyasi. Audit faoliyatining holati va rivojlanish tendensiyalari to'g'risidagi hisobot. – Toshkent, 2023.
6. Сирожиддинов И.К., Исомухамедов А.Б. Развитие экспортной направленности сельскохозяйственного производства. – 2022.
7. Isomuhamedov A. Organization of Accounting in Structures of a Small Business in the Construction Field // International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences. – 2023. – Vol. 17, No. 12. – Pp. 27–32.
8. Boxodir o'g'li I.A. Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – Vol. 6, No. 3. – Pp. 1053–1059.
9. Boxodir o'g'li I.A. Xarajatlar va daromadlar hisobi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari // Partner Conferences of the International Scientific Journal Research Focus. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – Pp. 990–992.
10. Boxodir o'g'li I.A. Accounting and Analysis of Costs as a Basis of Budgeting // Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review. – 2023. – Vol. 12, No. 4. – Pp. 9–12.
11. Abdulazizovich X.U.B., Murodillayevich N.J. O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari shakllanishining amaldagi holati tahlili // American Journal of Business Management. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – Pp. 43–51.
12. Xolmirzayev U.B. Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari // Green Economy and Development. – 2023. – Vol. 1, No. 11.
13. Isomukhamedov A., Xolmirzayev U., Tursunov U., Ergashev I., Aliyeva G., Karimova S., Nadirov U. Using AI Enterprise Expenses Prediction and Budgeting Mechanisms // Reliability: Theory & Applications. – 2025. – Vol. 20, SI 10 (88). – Pp. 365–371.
14. Abdulazizovich X.U.B. Innovasion faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Vol. 5, No. 3. – Pp. 142–146.
15. Sobirjon O'g'li J.E., Abdulazizovich X.U.B. Profits of Housekeeping and Its Development // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – Vol. 8, No. 4. – Pp. 419–423.

16. Abdulazizovich X.U.B. Innovasion faoliyatning moliyaviy ta'minotini kuchaytirish zarurligi va omillari tahlili // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Vol. 5, No. 3. – Pp. 142–146.
17. Abdulazizovich K.U. Positive Aspects of the Cash Method in Small Enterprises under Unusual Circumstances // Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review. – 2023. – Vol. 12, No. 11. – Pp. 38–47.
18. Xolmirzayev U.B., Ubaydullayev T. O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklik sohasida me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish // Green Economy and Development. – Vol. 3, No. 10.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz